



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 134 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
<i>Abdiqayumova Malika</i>	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
<i>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</i>	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
<i>Atamirzayeva Ezoza</i>	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
<i>Aminova Asilaxon Sobir qizi</i>	
Совершенство методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
<i>Уразова М. Б., Абатова У. Б.</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
<i>Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Gaipova Akjunis Qayratovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
<i>Alimov Bekzod Nematovich</i>	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
<i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
<i>Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</i>	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qiz</i>	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
<i>Gulsara Khakimova</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
<i>Hikmatova Jamila Fatoh qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
<i>I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</i>	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
<i>Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</i>	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
<i>Murodova Farangis G'anisherovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
<i>Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</i>	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
<i>Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</i>	
Sensor integratsiya autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
<i>Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
<i>Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi</i>	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
<i>Улугмурадова Шохсанам</i>	
Shaxs o'z-o'zini anglashining ijtimoiy-psixologik jihatlari	105
<i>Bobonazarov Oybek Shoyim o'g'li</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990yy).....	108
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Tabiatshunoslik darslarida steam yondashuvi asosida ta'limni tashkil etish metodlari	111
<i>Gulnora Narmatova Tojiyevna</i>	
AI-Mediated Coil in Oral English Teacher Education: a Didactic Model for Developing Intercultural Communicative Competence.....	115
<i>Mukhammadiyeva Khalima Saidakhmadovna</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress jarayonining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	119
<i>Xotamova Madinabonu Iloxomjon qizi</i>	
Pedagogik mahorat fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	123
<i>Xurramova Mohidil Baxtiyorovna</i>	
Bo'lajak kutubxonachilarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirish	126
<i>O'rozov Abdurasul Norboyevich</i>	
Методологические подходы к развитию духовно-творческого потенциала детей младшего школьного возраста	130
<i>Хасанова Гулшод Касимовна</i>	

BO'LAJAK KUTUBXONACHILARDA ILM- FANGA OID BILIMLARNI O'ZLASHTIRISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

O'rozov Abdurasul Norboyevich

O'zDSMI Kutubxona-axborot faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-4585-6141

Annotatsiya: Ilmiy maqolada bo'lajak kutubxonachilarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirish uchun chuqur va keng qamrovli bilimlarning zarurligi, axborot savodxonligi va media savodxonlik ustuvorligiga erishish, faol o'qish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, mutolaani targ'ib qilish va kitobxonlik muhitini yaratish, shuningdek, doimiy o'rganish va kasbiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, shaxsiy rivojlanish, mutolaa madaniyati, axborot madaniyati, kompetentlik, kodlashtirish, texnologiya, texnologik jarayon, media savodxonlik, kiber xavfsizlik.

Abstract: The scientific article highlights the necessity of deep and comprehensive knowledge for developing future librarians' competence in mastering scientific knowledge, achieving priority in information and media literacy, fostering skills of active reading and analytical thinking, promoting reading, and creating a reading environment, as well as outlining the main directions of continuous learning and professional development.

Key words: professional activity, personal development, reading culture, information culture, competence, coding, technology, technological process, media literacy, cybersecurity.

Аннотация: В научной статье освещается необходимость глубоких и всесторонних знаний для формирования у будущих библиотекарей навыков усвоения научных знаний, достижения приоритетности информационной и медиаграмотности, развития умений активного чтения и аналитического мышления, пропаганды чтения и создания читательской среды, а также основные направления непрерывного обучения и профессионального развития.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, личностное развитие, культура чтения, информационная культура, компетентность, кодирование, технология, технологический процесс, медиаграмотность, кибербезопасность.

KIRISH

Rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarida zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish yuqori darajada bo'lib, foydalanuvchilarga qulay, sifatli va tezkor kutubxona-axborot xizmati ko'rsatilmog'da. Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi – bu ilg'or texnologiyalar asosida xizmatlarni taqdim etadigan, xalqaro standartlarga mos keluvchi zamonaviy dasturiy va texnik vositalar bilan jihozlangan tizimdir.

Hozirgi paytda avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimining vazifalariga kutubxonadagi barcha kitoblar, jurnallar va boshqa hujjatlarni to'liq qayd qilish, klassifikator bo'yicha indekslar qo'yish, bibliografik qidirishni amalga oshirish, kutubxonaga a'zo bo'lganlarni ro'yxatga olish, buyurtmalar ro'yxatini tuzish, katalog va kartochnalarni hamda qayta ro'yxatga olish varaqalarini bosmadan chiqarish, kitoblarni abonementga berish va qabul qilishni qayd etish hamda muddatlarini uzaytirish, moliyaviy hisobotlarni yuritish, yangi kitobxonlarni ro'yxatga olish, markazlashtirilgan buyurtmalar berish va kutubxonaga tushgan hujjatlarni kuzatib borish kabi vazifalar kiradi ^[1.B.26].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish turlarining oshib borishi, kutubxonalarga bo'lgan ehtiyojning ko'payib borishi natijasida boshqarish, yangi kitoblarni va boshqa manbalarni fondlarga kirim qilish, hisobini yuritish, foydalanuvchilarga zamonaviy kutubxona-axborot xizmatini ko'rsatish muayyan darajada murakkab vazifaga aylanmog'da.



RFID (Radio Frequency Identification) texnologiyasi so'nggi yillarda turli sohalarda keng qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan biridir. RFID texnologiyasi obyektlarni radio to'lqinlar yordamida aniqlash va kuzatish imkonini beradi.

Ushbu texnologiya inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtiradi, xatolarni kamaytiradi va biznes operatsiyalarini optimallashtiradi. RFID tizimlari logistika, chakana savdo, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tezis RFID texnologiyasining asosiy komponentlari, afzalliklari, ilovalari va kelajagi haqida batafsil ma'lumot beradi [5.B.9]. Shunday holda, bugungi kunda RFID texnologiyasi kutubxona-axborot muassasalariga o'z fondlarini boshqarish va murojaatlarni samarali kuzatib borish hamda boshqarish uchun mazkur jarayonni oqilona tashkil etish yechimini taklif etadi. Kodlashtirishdan so'ng RFID yorliqlar skaner yoki ilova tomonidan o'qilishi mumkin. Bu kutubxonachilarga qo'lda tekshirishni talab qilmasdan, kataloglarning joylashuvi va aylanish holatini tezda skanerlash va kuzatish imkonini beradi. Bu esa hisobga olish jarayonida vaqtni tejash bilan birga, inson yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar ehtimolini ham kamaytiradi. Ushbu texnologiya kitoblarni kirim qilish va ularni foydalanuvchilarga berish jarayonini kuzatib borishdan tashqari, fondlarni boshqarish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. RFID texnologiyasi ro'yxatdan o'tish va buyurtmani rasmiylashtirish jarayonini jadallashtirish imkonini berganligi uchun xodimlarning ham, foydalanuvchilarning ham vaqtini tejash, yanada samaraliroq faoliyat ko'rsatishga imkon yaratadi. RFID texnologiyasi portativ hisoblagich yordamida kutubxona xodimlariga umumiy aniqlik va unumdorlikni oshirish bilan birga, kitoblar turgan joyini va ularning harakatini osonlik bilan kuzatish, foydalanuvchilarga sifatli xizmat ko'rsatish hamda ular bilan ko'proq muloqotda bo'lish imkoniyatini kengaytiradi [4.B.39].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini bo'lajak kutubxonachi-bibliograflarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirishning pedagogik va psixologik qonuniyatlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, kompetentlik va faoliyatga yo'naltirilgan tamoyillarga tayanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun ko'plab bepul xizmatlar mavjud bo'lganligi sababli, bo'sh vaqtni boshqarish bo'yicha treninglarda qatnashish, psixolog bilan maslahatlashish, qo'shimcha tarzda ingliz tilini o'rganish kabi xizmatlar kutubxonalarda mavjud bo'lganligi bois, talabalar uchun eng muhim joy kutubxona hisoblanadi. Talabalarning kutubxona xizmatidan to'la foydalanishlari uchun universitet kutubxonalari va o'quv zallari erta tongdan kechgacha, semestr yakuni davrida esa kechayu-kunduz ishlaydi. Kutubxonalar o'z-o'zini boshqaradigan butun boshli majmua hisoblanadi. Talabalar uchun kitoblar va ilmiy jurnallar o'qish davomida yordam beradigan yagona vosita bo'lib qolmasdan, ular elektron nashrlar to'plamlari, darsliklarning onlayn va elektron nusxalari, bir nechta elektron kutubxonalar ma'lumotlar bazalari, gazeta va jurnallarga bepul obuna bo'lish imkoniyatiga ham ega. Bularning barchasidan foydalanish uchun kutubxonada bo'lish shart emas, balki oliy ta'lim muassasasining veb-saytidan ro'yxatdan o'tish kifoyadir. Lekin shu o'rinda kutubxonada bo'lish, uning muhitida ijod qilish, boshqa foydalanuvchilar bilan jonli muloqotda bo'lish hamda uning har bir foydalanuvchi uchun shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyatini ham yodda tutish zarur.

Agar oliy ta'lim muassasasida kerakli kitob yoki nashr topilmasa, uni boshqa oliy ta'lim muassasasi kutubxonasiga buyurtma qilish mumkin. Kutubxona-axborot muassasalari xodimlari kerakli manbalarni topishda yordam berishlari yoki dissertatsiyadagi adabiyotlarni to'g'ri tanlash hamda to'g'ri rasmiylashtirishda ko'maklashishlari mumkin. Bu dissertatsiyalardagi iqtiboslar va manbalar ro'yxatini umumiy qabul qilingan standartlarga muvofiq to'g'ri tartibga solishga yordam beradi. Xatolar tufayli faoliyatda yo'qotishlar bo'lmasligi uchun kutubxonalarda yiliga bir necha marta maxsus seminarlar o'tkaziladi. Talabalar tadqiqot ishi dizaynini tekshirish uchun individual konsultatsiyaga yozilishi mumkin. Konsultatsiya davomida talabaga elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalaridan qanday foydalanish o'rgatiladi. Kutubxonalar talabalarni zarur adabiyotlar bilan ta'minlabgina qolmay, ma'naviy-ma'rifiy markaz vazifasini ham bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fan va texnika taraqqiy etgan bugungi davrda kutubxona-axborot muassasalarining missiyasi o'zgarimoqda, bo'lajak kutubxonachining kelgusi professional faoliyatida ham qoidalar yangilanishiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Endilikda kutubxonachilar faoliyatini baholashda tadbirlar miqdori, kutubxonachilar va berilgan kitoblar soni kabi ko'rsatkichlar bosh omil bo'la olmaydi. Shu boisdan bu o'zgarishlar bo'lajak kutubxonachidan an'anaviy kutubxona-axborot xizmati sohasidagi bilimlardan tashqari zamonaviy axborot tizimlari bilan ishlash, ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini ham talab qilmoqda. Kutubxona-axborot faoliyatini tashkil etishda hozirgi tajribaga murojaat etiladigan bo'lsa, Britaniya oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv adabiyotlaridan

tayyor javob berish o'rniga o'z nuqtayi nazarini isbotlash mahoratini rivojlantirishga harakat qiladi. O'quv jarayonida mustaqil ish topshiriqlari yuqori baholanganligi uchun zamonaviy oliy ta'lim muassasasi kutubxonasi nafaqat kitoblar to'plami, balki haqiqiy ko'p funksiyali o'quv markazi hisoblanadi.

Ma'lumki, axborot sohasidagi inqilob insoniyat sivilizatsiyasining butun rivojlanish jarayoniga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa kutubxonalar faoliyatining kengayishi uchun katta imkoniyatlarni ochmoqda. Axborot tizimlari va texnologiyalarining rivojlanishi kutubxonalarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, an'anaviylik va zamonaviylikning nisbati, kutubxona-axborot xizmatini tashkil etishning asosiy tamoyillari haqidagi fundamental g'oyalarni qayta ko'rib chiqishga olib kelmoqda. So'nggi o'n yilliklarda Xitoy oliy ta'lim muassasalarining jadal rivojlanishi natijasida kutubxonalarga sarmoyalarning ko'payishi kutubxonalarni kompyuterlashtirish va telekommunikatsiya vositalari orqali kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Kutubxonalarning axborot salohiyati yangi axborot texnologiyalari orqali mustahkamlanadi, elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalari yaratiladi, foydalanuvchilarga kitoblarni erkin tanlash imkoniyati yaratiladi. Yangi sharoitda kutubxonalar ilmiy, o'quv-metodik ta'minotning asosi hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasi kutubxonasi xodimi yosh talabalarga ma'lumotlarni izlash, qayta ishlash va o'zlashtirish usullarini o'rganishda, uzluksiz mutolaa jarayonida o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etishda, intellektual rivojlanishda yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarning raqamlashtirilishi va to'liq matnli elektron ma'lumotlar bazalarining mavjudligi nafaqat kutubxonachiga, balki foydalanuvchilarga ham yordam bermoqda. Barcha kutubxonalarda turli yo'nalishdagi to'liq matnli elektron ma'lumotlar bazalari ham mavjud. Oliy ta'lim muassasalari kutubxonalari talabalarining bo'sh vaqtlarida ularni ma'naviy-ma'rifiy dasturlarga yo'naltirib, bilimlar tanlovi va seminarlar, zamonaviy kutubxonadan foydalanish bo'yicha tanlov darslari tashkil etadi. Natijada talabalar mutolaa qilish uchun kutubxona eng qulay ijtimoiy-madaniy muassasa ekanligi haqida taassurot hosil qiladilar. Yoshlar yetarli darajada bilim olishlarini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirishda kutubxonalar muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda sohani raqamlashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, axborotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash, qidirish va foydalanuvchilarga yetkazib berishda zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash samarali natijalar beradi. Bizningcha, kutubxona-axborot xizmati jarayonidagi muhim, ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Mutolaaning shaxsni ijtimoiylashtirish vositasi sifatidagi yuqori maqomini saqlash;
2. Mutolaaga jalb qilish metodikalari va texnologiyalarini ishlab chiqish, mutolaani targ'ib qilish, shuningdek, mutolaa qilmaslik sabablarini o'rganish;
3. Turli foydalanuvchilar guruhlarida yuqori darajadagi mutolaa va axborot madaniyatini shakllantirish.

Ta'kidlash zarurki, doimiy foydalanuvchilar guruhlari bilan bir qatorda yangi foydalanuvchilar guruhlari – migrantlar, marginallar, keksa yoshdagilar, shuningdek, biznesmenlar, tadbirkorlar va boshqalar alohida e'tiborga muhtojdir. Axborot texnologiyalarining kutubxona xizmatiga joriy etilishi bilan kutubxonadan foydalanadigan yangi foydalanuvchilar toifasi paydo bo'ldi, bu esa zamonaviy kutubxona xizmatining imkoniyatlarini, jumladan, mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyalaridan foydalanish yo'llarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash zarurki, kutubxonachilik kasbi – bu shunchaki kitob beruvchi emas, balki bugungi axborot olish jarayonida yo'l ko'rsatuvchi, mutolaa va kitobxonlik madaniyatini shakllantiruvchi mutaxassisdir. Shuning uchun ham bo'lajak kutubxonachilarda yuksak mutolaa madaniyatini rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy samaradorligi, balki butun jamiyatda mutolaa va kitobxonlik madaniyatining yuksalishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari bir qancha jihatlarga ko'ra namoyon bo'ladi: chuqur va keng qamrovli bilim zarurligi, oddiy kitobxon o'z qiziqishlari doirasida o'qisa, bo'lajak kutubxonachi turli sohalar va janrlar bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'lishi shart, buning sababi shundaki, ular kutubxonaga keladigan turli yoshdagi, turli qiziqish va ehtiyojlarga ega bo'lgan kitobxonlarga maslahat berishi, ularni to'g'ri adabiyotga yo'naltirishi kerak, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: jahon va milliy adabiyot klassikasi – qaysi kitoblar davrlar osha ahamiyatini yo'qotmaganini bilish, ilmiy-ommabop va sohaviy adabiyotlar – tabiiy, aniq, ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha asosiy asarlardan xabardor bo'lish, bolalar va o'smirlar adabiyoti – yosh kitobxonlarning yosh xususiyatlariga mos adabiyotlarni tavsiya qilish qobiliyati.

Zamonaviy adabiyot va bestsellerlar – jamiyatning mutolaa qilishi va kitobxonlik tendensiyalarini tushunish, elektron va audio resurslar – raqamli asrda axborotning yangi shakllarini o'zlashtirish ^[2.B.112], axborot savodxonligi va media savodxonlikning ustuvorligi, kutubxonachilar axborot manbalarining ishonchligi va haqqoniyligini baholashda namuna bo'lishi kerak, shu sababli, ularda yuqori darajadagi axborot savodxonligi va media savodxonlik rivojlanishi muhim ahamiyatga egadir: manbalarni tanqidiy tahlil qilish – nostandart manbalar, feyk (yolg'on, chalg'ituvchi) xabarlar va manipulyativ kontentni farqlay olish, ma'lumotlarni izlash va topish ko'nikmalari – elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari va internet resurslaridan samarali foydalanish,



axborotni tizimlashtirish – olingan bilimlarni tartibga solish va kerakli paytda ulardan foydalana olish, kibexavfsizlik asoslari – raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik qoidalariga rioya etish, faol o'qish va tahliliy fikrlash ko'nikmalari, bo'lajak kutubxonachilar uchun oddiy mutolaa yetarli emas, ular faol mutolaa qilish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini mukammal o'zlashtirishlari kerak: chuqur mutolaa – matnning mohiyatini, muallifning g'oyasini to'liq anglash, konspektlashtirish va qaydlar olish – o'qiganlarni tizimlashtirish va asosiy fikrlarni ajratish, asarlarni sharhlash va tavsiya qilish – kitob mazmunini qisqa va tushunarli tarzda taqdim eta olish, uning qiymatini asoslab berish, tanqidiy baholash – kitobning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'z fikrini asosli bayon etish ^[3.B.27].

Mutolaani targ'ib qilish va kutubxonlik muhitini yaratish, kutubxonachilarning asosiy vazifalaridan biri – kitobxonlikni ommalashtirish va kutubxonani bilim maskaniga aylantirishdir, buning uchun ularning o'zida mutolaaga nisbatan kuchli ehtiyoj va muhabbat bo'lishi kerak: shaxsiy namuna – o'zi muntazam mutolaa qiladigan, kitob-larga qiziqadigan kutubxonachi boshqalarga ham yordam bera oladi, muloqot ko'nikmalari – foydalanuvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning qiziqishlarini aniqlash va mos adabiyotlarni tavsiya etish.

Tadbirlarni tashkil etish – kutubxonlik kechalari, muhokamalar, taqdimotlar va ko'rgazmalar uyushtirish orqali kutubxonlarni jalb qilish, ijtimoiy yondashuv – kutubxonlikni jozibali va qiziqarli qilish uchun yangi g'oyalar va usullarni qo'llash, doimiy o'rganish va kasbiy rivojlanish, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida kutubxonachilarning mutolaa madaniyati doimiy yangilanib borishini talab qiladi, ular nafaqat yangi kitoblarni mutolaa qilish, balki sohadagi yangiliklar, zamonaviy kutubxonachilik tendensiyalaridan ham xabardor bo'lishi lozim: mutaxassislikka oid adabiyotlarni o'qish – kutubxonashunoslik, bibliografiya, axborot texnologiyalari bo'yicha yangi nashrlar, seminar va treninglarda ishtirok etish – kasbiy ko'nikmalarni oshirish va yangi bilimlarni o'zlashtirish, hamkasblar bilan tajriba almashish – boshqa kutubxonachilarning ish uslublarini o'rganish, bo'lajak kutubxonachilarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirish – bu kompleks jarayon bo'lib, u nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashni, balki shaxsiy sifatlarni, kitobga va bilimga bo'lgan muhabbatni ham shakllantirishni talab etadi.

Ushbu malakalar yig'indisi ularga o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish, jamiyatda kitobxonlikni keng targ'ib etish va kelajak avlodlarga bilim, umuminsoniy va milliy ma'naviy merosni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aniyeva D.A. Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. - 332 b.
2. Mahmudov M. Axborot-resurs markazlarida kutubxonlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2021. - 140 b.
3. Hakimova M.Ya. Mutolaa madaniyati: hodisa, jarayon, faoliyat. - Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2025. - 135 b.
4. Shermuhammedova M.A. Kitob va jamiyat: ijtimoiy-falsafiy tahlil. - Toshkent: Falsafa va huquq, 2016. - 192 b.5.
5. Klaus Finkenzeller. "RFID Handbook: Fundamentals and Applications in Contactless Smart Cards, Radio Frequency Identification and Near-Field Communication". - Wiley, 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.